

PEDAGOGIKA FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.

*University of management and
future technologies universitetining*

Xorijiy til va adabiyot

Fakultetini 2-kurs talabasi

Djumaqulova Sevara

Annotatsiya: Pedagogika fani jamiyatda ta'lim va tarbiya jarayonini o'rganadigan, insonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan muhim soha hisoblanadi. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish va zamonaviy bilimlarni berish har bir ta'lim tizimining asosiy vazifasidir. Shu sababli pedagogika fanining maqsadi va vazifalarini chuqur anglash nafaqat o'qituvchilar, balki bo'lajak mutaxassislar uchun ham muhim sanaladi. Mavzuning dolzarbligi ham aynan shundaki, pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish uchun uning nazariy asoslarini bilish zarur.

Kalit so'zlar: Pedagogika tarixi, Pedagogik fikrlar, Tarbiya, Maktab va tarbiya tizimi, Pedagogik g'oyalar, Tizimli yondashuv, Rivojlanish jarayoni, Pedagogik madaniyat, Milliy o'z-o'zini anglash, Kasbiy rivojlanish, Pedagogik fikrlar tahlili, O'quv-tarbiya jarayoni, Mustaqillik davri pedagogikasi, Tarixiy izchillik, Milliy qadriyatlar, Pedagogik bilim, Hayotiy malakalar.

Pedagogika (qadimgi yunoncha) — tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'rganiladigan o'quv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani

maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni' davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyatini muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika tushunchasi

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi.

"Pedagogika tarixi" faning maqsadi – eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha turli davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini tizimli yondashuv asosida o'rginishdan iborat.

Maktab va pedagogika ko'p asrlik tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Mazkur davrda pedagogika fani ko'plab g'oyalar va kontseptsiyalar bilan boyib bordi. "Pedagogika tarixi" faning predmeti - eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlarning rivojlanish jarayoni.

"Pedagogika tarixi" fanining vazifalari:

1. milliy o'z-o'zini anglash, kasbiy rivojlanish bilan bog'liqlikda umumiy va pedagogik madaniyatni shakllantirish;
2. pedagogik fikrlar rivojini tahlil etish va tizimlashtirish;
3. pedagogik g'oyalarni tahlil etish asosida ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Mustaqillik tufayli pedagogika tarixini o'rganishda yangi-yangi muammolar organilmoqda. Mustaqillik pedagogik goyalarining rivojlanishida tarixiy izchillikni amalga oshirish, qadrlarning ma'naviy, goyaviy tarbiyasini shakllantirishda pedagogik qadriyatlarga suyanish, ta'lim-tarbiya sohasidagi o'tmish meros va umumbashariy qadriyatlar, milliy urf-odat va an'analardan foydalanish bolajak oqituvchining pedagogik bilim va mahoratini oshirish imkonini beradi.

Pedagogika tarixi fanining vazifasi xar bir oqituvchi, murabbiy, tarbiyachi va turli kasb ziyolilariga insonshunoslik va tarbiya-ta'limshunoslik borasida boy bilim, hayotiy malakalarni hosil qiladi. Pedagogika tarixi fani 1939 yildan boshlab, pedagogika oliy maktablarida oqitilmoqda. Uning vazifalari.

-Kishilik tarakdiyotidagi ta'lim-tarbiyaging ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy riojlsshish haqida ma'lumot berish;

-Utmishdagi ta'lim va tarbiya masalalarini, texnologiyasini hamda maktab tizimidagi yukskak goya va tajribalarni jadal rivojlantirishni ijodiy organish;

- Bolajak o'qituvchilarni o'quv tarbiya yo'li jarayonida buyuk mutafakkir olimlarning asarlaridagi pedagogik goyalarini o'rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.

7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.

[Pedagogika - Vikipediya](#)